

INGLIZ VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIK BIRLIKLARNING FARQLI JIHATLARI

Ahmedova Halima

Termiz davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillari kafedrası katta o‘qituvchisi

Tel: +998936100056

E-mail: ahmedova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik birliklarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatları borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, ikki tilda mavjud bo‘lgan leksik birliklar, xususan frazeologik birliklar misollar asosida qiyosiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz, o‘zbek, til, leksik birliklar, frazeologizm, til ko‘nikmalari, maqol.

РАЗНЫЕ АСПЕКТЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Ахмедова Халима

Старший преподаватель кафедры межфакультетских иностранных
языков Термезского государственного университета

Тел: +998936100056

Э-почта: ahmedova@gmail.com

Аннотация. В данной статье представлены мнения о сходстве и различиях лексических единиц английского и узбекского языков. Также на примерах сравнительно изучались лексические единицы, особенно фразеологизмы, существующие в двух языках.

Ключевые слова: английский, узбекский язык, лексические единицы, фразеология, речевые навыки, пословица.

DIFFERENT ASPECTS OF LEXICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS

Ahmedova Halima

Senior teacher of the Department of Interfaculty Foreign Languages, Termiz State
University

Phone: +998936100056

E-mail: ahmedova@gmail.com

Abstract. This article presents opinions on the similarities and differences of lexical units in English and Uzbek languages. Also, lexical units, especially phraseological units, existing in the two languages were studied comparatively on the basis of examples.

Key words: English, Uzbek, language, lexical units, phraseology, language skills, proverb.

KIRISH.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish tizimini tubdan takomillashtirish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada bir qator qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilayotganligi fikrimizning dalilidir. Hozirgi globallashtirish davrida yosh avlod o'rtasida xorijiy tillarni ommalashtirish masalasi kelgusida kadrlarimizning jahon mehnat bozoriga bimalol integratsiyalashuviga, mahalliy mehnat bozorining raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyoda eng ommalashgan til sifatida e'tirof etiluvchi ingliz tili va o'zbek tilidagi leksik birliklarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan ochib berish mamlakatimizda ingliz tilini o'qitish tizimining takomillashuviga ham ma'lum ma'noda hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklar masalasi bir qator mahalliy va xorijiy tilshunoslardan tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar bizning maqolamiz uchun asosiy manba vazifasini bajaradi. Jumladan, mahalliy olimlardan O.I. Hasanboyeva o'zbek tilidagi leksik birliklar, ularning ingliz tilidagi leksik birliklar bilan o'zaro o'xshash jihatlari, frazeologik birliklar masalasiga oid ilmiy

tadqiqotlar amalga oshirgan [1]. Mahalliy tadqiqotchilardan yana biri A.E. Mamatov o'zining "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari" nomli kitobida esa leksik birliklarning namunasi hisoblangan frazeologizmlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan [2]. Ingliz tadqiqotchilaridan esa Mariane Celce-Murcia, Donna M. Brinton, Marquerite Ann kabilar leksik birliklar mavzusini har tomonlama o'rganish borasida samarali faoliyat olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ingliz va o'zbek tilshunosligida leksik birliklarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini ochib berishga qaratilgan mazkur maqolada ilmy tadqiqotning tilshunoslik sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, germeneytik tahlil, qiyosiy tahlil kabi metod va usullaridan samarali foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Hozirgi zamon tilshunosligida leksik birliklarning rivojlanish tendensiyalarini har tomonlama, madaniy nuqtai nazardan tadqiq etish til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro chambarchas aloqadorlikni aniqlash imkoniyatini yaratib beradi. Globallashuv davriga kelib turli xalqlar va millatlarning madaniyatiga xos bo'lgan asarlarning turli tillarga tarjima qilinishi o'zaro madaniyatlararo integratsiyalashuvning, madaniy tanishuvlarning taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Ma'lumki, har bir tilning taraqqiy etishida, ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy rivojlanish jarayonlarini baholashda leksik birliklar, xususan frazeologizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologiya har qanday tilning ajralmas qismi bo'lib, ushbu tilning taraqqiyoti, keng yoyilishida muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Frazeologiya deganda o'ziga xos ma'no-mazmunga ega bo'lgan, turg'un xarakterga ega bo'lgan murakkab til birliklari haqidagi fan tushuniladi. Hozirgi kunga kelib har qanday tilning leksik birliklarini o'rganishda frazeologizmlar muhim ahamiyat kasb etuvchi unsurlar bo'lib, ularni o'rganmay turib leksik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini, boshqa tillardagi leksik birliklardan farqini aniqlash imkonsiz. Mashhur tilshunos olim Kuninning fikriga ko'ra,

frazeologizmlar ma'no-mazmun nuqtai nazaridan butunlay yoki qisman o'zgari turuvchi leksik birliklar sirasiga kiradi [4].

Ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarni qiyosiy nuqtai nazardan o'rganganda, ularning o'ziga xos jihatlariga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Jumladan, o'zbek tilidagi leksik birliklar ma'no jihatidan nisbatan serqirra hisoblanib, bir so'zning bir nechta ma'nolari bo'lishi mumkin. Ingliz tilshunosligida esa har bir so'zning o'ziga xos ma'nosi va ishlatilish xususiyatlari mavjudligi e'tirof etiladi. Ya'ni ingliz tilshunosligida, adabiyotida so'zlar aniq bir belgilangan ma'no xususiyatlariga ega bo'ladi.

Leksema yoki so'z deb nomlanuvchi leksik birliklar ham ikki tilda muhim ahamiyat kasb etuvchi unsurlar qatoriga kiradi. Tabiiyki, ikkala tilda ham leksik birliklar o'rtasida tafovutlar mavjud:

1. So'z yasash qonun-qoidalar. Ingliz tilidagi ko'pgina so'zlar turli morfemalarni o'ziga birlashtirib, yangi so'zlar hosil qilinishiga sabab bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "happy" – baxt so'ziga "un" prefiksini qo'shish orqali "baxtsizlik" so'zi hosil qilinadi. Bundan farqli ravishda o'zbek tilida yangi so'zlar yasashda ko'proq so'zlarga yangi so'zlar qo'shish va affiksatsiyaga tayaniladi. Ya'ni o'zbek tilshunosligida bir qancha so'zlar o'zaro qo'shilib yangi leksemalar hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Tilshunoslar tomonidan sohaga oid olib borilgan tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, ingliz tili dunyodagi xushmuomalalik, pozitivizmni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan tillardan biri hisoblanadi. Ingliz tilida ushbu ma'nolarni ifodalovchi so'zlarning salmog'i ham buni dalillashga imkon yaratib beradi. Ingliz tilida shirinso'zlikni, mamnunlikni ifodalovchi so'zlar qatoriga *"Ok; All right; Ooh great; Great job; Fine, thank you; Nice to meet you; Good, Excellent"* va boshqa so'zlarni kiritish mumkin bo'lsa, o'zbek tilida esa mamnunlik *"juda yaxshi, ajoyib, go'zal, a'lo"* kab so'zlar vositasida ifodalanadi [1];

2. O'zlashtirilgan so'zlar. Ma'lumki, har qanday tilning lug'at boyligini o'stirishda boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashma so'zlar muhim rol o'ynaydi. Tilning chegaralari uning boshqa jihatlariga qaraganda lug'at orqali ko'proq

kengaytiriladi. Jamiyat hayotidagi yangiliklar yangi ta'riflarni talab qiladi va ularning shakllanish jarayoni ham bir xil emas. Ayrim yangi so'zlar eski birliklar asosida semantikasini o'zgartirib hosil bo'ladi. Boshqalari esa affikslardan foydalanish yoki ikkita so'zni birlashtirish yo'li bilan hosil bo'lishi mumkin. Ko'p sonli yangi leksik birliklar tilga siyosat, yadroviy qurolsizlanish, moliyaviy hayot, ayniqsa kompyuterlashtirish sohasidan kirdi. Xuddi shunday ingliz va o'zbek tillari ham turli tillardan kirib kelgan leksik birliklar vositasida yildan yilga boyib bormoqda. Ingliz tiliga asosan lotin tilining avlodlari bo'lgan ispan, italyan yoki fransuz va nemis tillaridan ko'plab so'zlar kirib kelgan bo'lsa, o'zbek tili esa asosan arab, fors va turk tilidan kirib kelgan so'zlar hisobiga boyib borgan [5];

3. Fonologik va morfologik farqlar. Ingliz tilshunosligida so'z va iboralarning ma'no-mazmunini o'zgartirishi mumkin bo'lgan urg'u va intonatsiyaning murakkab tizimi mavjud bo'lsa, o'zbek tilida esa muntazam urg'u namunasi yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Morfologik nuqtai nazardan olib qaraganda ham ingliz tilidagi ot va fe'l so'z turkumiga kiruvchi so'zlarda ma'lum bir chalkashliklar uchraydi [2];

4. Madaniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlar. Ma'lumki, har qanday tildagi mavjud leksik birliklar xalqning urf-odatlarini, madaniyati, milliy va diniy qadriyatlarini, kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan bir tilda mavjud bo'lgan leksik birlikning ekvivalenti boshqa tilda mavjud bo'lmaslik holatlari ham ko'p uchraydi. Misol uchun ingliz tilida sport yoki zamonaviy texnologiyalarga oid bo'lgan ba'zi bir leksik birliklar o'zbek tilida uchramasligi mumkin. Yoki o'zbek milliy o'yinlari, xususan kurash sport turida qo'llaniladigan atamalarining ekvivalenti ingliz tilida uchramasligi ham tabiiy hol hisoblanadi [3].

Umuman olganda, shuni aytish lozimki, leksik birliklar ingliz va o'zbek tillarida tilning qurilish bloki vazifasini bajaradi. Fonologiya, morfologiya hamda o'zlashgan so'zlar o'rtasidagi o'ziga xos xususiyatlar va farqli jihatlar esa ikki tilning leksik nuqtai nazardan o'ziga xos ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSALAR.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklar har ikki xalqning madaniyati, turmush tarzi, geografik muhit omilidan kelib chiqqan holda o'zaro farqlanadi. Ammo bu jihatlar keskin farqlarni keltirib chiqarmasdan, ikki til uchun umuniy bo'lgan leksik birliklarning mavjud ekanligini ham alohida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu farqli va o'xshash jihatlarni tadqiq qilish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bugungi kunda tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar

1. Hasanboyeva O.I. Til o'rgatish metodikasida leksik birliklarning o'рни. Экономика и социум. 2022. – С. 226-229.
2. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: 1992. – B. 182.
3. Mariane Celce-Murcia, M. Brinton Donna, Ann Marquerite. "Teaching English as a second or foreign language", Heinle Publishers, 2004, 421 p.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: «Русский язык» nashriyoti, 1981.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009 – B. 175.